

# Ustyurt platosi janubiy hududlarining noyob hayvonlari

O'zR FA Zoologiya instituti tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ustyurt platosi janubiy hududlari faunasini o'rganish maqsadida ekspeditsiya uyushtirildi.



*Sariqamish ko'lining sharqiy qirg'og'i buylab joylashgan chinklar*



*Ustyurt palatosidagi jayronlarning kichik populyatsiyasi*

Ekspeditsiya davomida Ustyurt platosining janubiy hududlarida joylashgan Sariqamish ko'lining shimoliy,

sharqiy va g'arbiy qirg'og'i bo'ylab va u yerda joylashgan chinklarda, Sho'rja kotlovani atrofida va Qulantaqir geografik punktlarida ilmiy izlanishlar olib borildi.



*Sariqamish ko'lidagi flamingo galasi*



*Sariqamish ko'lida uchragan oqqushlar galasi*





*Sariqamish ko'lining sharqiy qirg'og'i buylab joylashgan chinkda uyalagan jo'rchi qushi*







#### *Tadqiqot jarayonlari*

Tadqiqot ishlari davomida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan jayron (*Gazella subgutturosa* G)larning kichik populyatsiyalari va qulon (*Equus hemionus* P)larning 60-70 boshli katta podasi aniqlandi hamda ularning bioekologik xususiyatlari o'rganildi.

Sariqamish ko'lining sharqiy qirg'og'ida joylashgan chinkning yoriqlarining biridan yo'qolib ketish xavfi ostida turgan Ustyurt quyi (*Ovis vignei* arkal E) ning tunash joyi va izlari topildi.